

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT
SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“Tasdiqlayman”
O‘zbekiston davlat
san‘at va madaniyat
instituti rektori**

N.B. Sayfullayev

“26” 06 2026-y

**“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**

“26” 06 2026-y

**“Kelishildi”
O‘zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi**

“26” 06 2026-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211200-Rejissyorlik (musiqali teatr rejissyorligi)
ta‘lim yo‘nalishi uchun**

1. Musiqali teatr rejissyorligi fanidan
2. Aktyorlik mahorati va sahna nutqi fanidan

Toshkent – 2026

Dastur O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Badiiy, o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2026-yil 15 05 10-sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

- R.Usnatov - O'zDSMI "Musiqali teatr san'ati" kafedrası mudiri, professor
- Sh.Muhammadiyev - O'zDSMI "Musiqali teatr san'ati" kafedrası dotsenti

Taqrizchilar:

- M.R.Yusupova - O'zDSMI "Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati" kafedrası professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi
- A.A.Mullaxonov - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatri direktori

Kirish

60211200-Rejissyorlik (musiqali teatr rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kiruvchi abituriyentlarning ijodiy (ijodiy) imtihoni dasturi hujjatlarni qabul qilish va kirish imtihonlar "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalari"ga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlar har bir ixtisos uchun ta'kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi har bir Oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidalar ko'rsatiladi.

60211200-Rejissyorlik (musiqali teatr rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirayotganlar ijodiy va tashkiliy ishlarga qobiliyatli hamda asarni tanlash va sahnalashtirilishda zaruriy jihatlarni aniqlay oladigan bo'lishi kerak.

Fanning maqsadi va vazifalari

60211200-Rejissyorlik (musiqali teatr rejissyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishda ijodiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning rejissyorlik layoqatini ijodiy sinovlar orqali fanlaridan ijodiy hamda amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tgiziladi.

Fanning vazifasi – abituriyentlarni mazkur soha bo'yicha zamonaviy ta'lim metodlari orqali sinash, musiqiy savodini, rejissura konsepsiyasini, rejissura asoslarini, sahnaviy asarlarning janri, spektaklda aktyorlarning obraz yaratishi, xarakter, aktyorlar ifodaviy vositalardan foydalanish qoidalarini aniqlashdan iborat.

Abiturent bu bosqichda quyidagi dasturlarni tayyorlashi lozim:

- abituriyentning dunyoqarashi va ijodiy salohiyati ;
- san'at va madaniyat haqida tushuncha ;
- adabiyot, musiqiy teatr dramaturgiyasi haqida tushuncha;
- ixtisoslik (musiqiy teatr rejissyorligi) haqida tushuncha;
- mantiqiy-obrazli fikrlash, ijodiy tasavvur, kuzatuvchanlik, xotiraviy mushohadasi;
- insoniy jozibadorligi, xislati, hayotiy tajribasi, tashqi ko'rinishi;
- musiqiy savodxonligi;.
- shaxsning o'ziga xosligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy-axloqiy hislatlari;
- sahna madaniyati, estetik didi, muomala munosabati;
- shaxsning o'ziga xosligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy-axloqiy hislatlari;
- rejissyorcha fikrlash;
- rassomchilik, musiqa, raqqoslik va plastik san'at haqidagi tushunchasi;

Bundan tashqari abituriyent qiziqqan soha yoki janr bo'yicha o'zining tayyorlab kelgan mustaqil nomerini ham namoyish etish mumkin. Masalan:

1. Plastika
2. Pantomimo

3. Buyumlar jonlanishi asosida etyud
4. Parodiya (taqlid san'ati)
5. Musiqa san'ati

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Rejissura fani bo'yicha suhbatda (og'zaki imtixonida) abituriyent ijodiy qobiliyati, musiqiy savodxonligi sinaladi. Abituriyentning ijodiy salohiyati, insoniy jozibadorligi, xislati, tabiati, yoshi, tashqi ko'rinishi, yoqimtoyligi hamda ichki madaniyati bilan birga uning dunyoqarashi, san'at va madaniyat haqida tushunchasi, adabiyot, musiqiy teatr dramaturgiyasi haqida tushunchasi talabga javob berishi tekshiriladi.

Aktyorlik mahorati fanidan Rejissyorlikka kirmoqchi bo'lgan abituriyent ijodiy qobiliyatga ega bo'lishi, musiqiy savodxonlikka ega bo'lishi kerak. Abituriyent sahnada aktyorlik mahoratini namoyish etayotgan jarayonda uning ijodiy salohiyati va sahnaviy tarovati, tashqi ko'rinishi, hayotiy tajribasi, tasavvurining rang-barangligi, ta'sirchanligi, hayotiy voqea va xodisalarga munosabati hamda ularni sahnada aks ettira olish salohiyati mavjud bo'lishi kerak.

Sahna nutqi fani bo'yicha abituriyentni sinash davrida sahna nutqi kafedrası pedagoglari tomonidan uning ovozi va nutqini tekshiruvı amaliy tarzda o'tkaziladi. Sog'lom ovozning mavjudligi, talaffuzning tozaligi, ravonligi, burroligi, aniqligi (nutq a'zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo'qligi o'rganiladi. Sahna nutqi - o'qishga kirayotgan shaxsni ijodiy maylini aniqlashga, teatr va kino sohasida kelajakda nutqi bo'yicha bilimlarini to'g'ri ishlata olishiga, asosiy ko'nikmalarga to'g'ri oriyentatsiya qila olishini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi: Rejissura fani bo'yicha

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1	Abituriyentning dunyoqarashi va ijodiy salohiyati	0-8
2	San'at va madaniyat haqida tushunchasi	0-10
3	Adabiyot, musiqiy teatr dramaturgiyasi haqida tushunchasi	0-7
4	Ixtisoslik (musiqiy teatr rejissyorligi) haqida tushunchasi	0-5
5	Mantiqiy-obrazli fikrlash, ijodiy tasavvur, kuzatuvchanlik, xotiraviy mushohadasi	0-20
6	Insoniy jozibadorligi, xislati, hayotiy tajribasi, tashqi ko'rinishi.	0-5
7	Musiqiy savodxonligi.	0-5
8	Shaxsning o'ziga xosligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy-axloqiy hislatlari	0-5
9	Sahna madaniyati, estetik didi, muomala munosabati	0-5
10	Shaxsning o'ziga xosligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy-axloqiy hislatlari	0-5

11	Rejissyorcha fikrlashi	0-5
12	Rassomchilik, musiqa, raqqoslik va plastik san'at haqidagi tushunchasi	0-8
13	Umumlashtirish layoqati	0-5
	Jami	(93)

Aktyorlik mahorati va Sahna nutqi fanlari bo'yicha

T.r.	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1	Abituriyentning ijodiy salohiyati va sahnaviy tarovati (tasavvurining rang-barangligi, ta'sirchanligi, hayotiy voqea va xodisalarga munosabati hamda ularni sahnada aks ettira olish salohiyati)	0-8
5	Ijro uslubi va mahorati (she'r, g'azal, monolog, masal, hikoya)	0-20
6	Ijro mahoratidagi ta'sirchanligi, tabiiyligi, o'ziga xosligi	0-5
7	Sezgi (ko'rish, eshitish va idroklash) qobiliyati. Abituriyentning improvizatsiyaga moyilligi	0-5
8	Abituriyentning sahnaviy tasavvuri - hayotiy (real) muhitda, turli sharoitlarda abituriyentning berilgan vaziyatda qahramon o'rnida o'zini ko'ra bilish salohiyati	0-5
9	Talaffuzning tozaligi, ravonligi, burroligi, aniqligi (nutq a'zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo'qligi)	0-5
10	Ovozning sog'lomligi va jarangdorligi	0-5
11	Nutqiy ifodaviylik va ta'sirchanligi (nutqiy eshitish qobiliyatining mavjudligi)	0-5
12	Badiiy so'z ijrochiligi mahorati (she'r, g'azal, masal, monolog va nasriy – xajviy asar)	0-5
	Jami	(63)

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60211200-Rejissyorlik (musiqali teatr rejissyorligi) yo'nalishiga xujjat topshirgan abiturent jadval asosida belgilangan kunlarda rejissura, aktyorlik mahorati va sahna nutqi fanlaridan ijodiy imtihon topshiradi. Qabul komissiyasi tomonidan shakillantirilgan guruhlar 30 nafar abiturientlardan iborat bo'lib, ijodiy imtihon guruhlari bo'yicha o'tkaziladi. Ijodiy (kasbiy) imtihonlar maxsus qurollar bilan jihozlangan auditoriyalarda bo'lib o'tadi.

Ijodiy (kasbiy) imtihon raisi, rejissyorlikdan kurs oluvchi pedagog, ovoz, nutq, vokal xamda raqs mutaxassislarining tekshiruvi bilan o'tkaziladi. Sog'lom ovozning mavjudligi, ijodiy salohiyatga egaligi, organik yetishmovchiliklarining yo'qligi o'rganiladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin.

Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

1. Qobilov X. Musiqali teatr rejissyorligi. Navro'z nashriyoti-T.: 2020.
2. M.Abdullayeva. Rejissura. o'q.qo'llanma-T., 2016.
3. Qobilov N. Aktyorlik mahorati. Navro'z nashriyoti-T.: 2020.
4. Qobilov N, Muhammadiyev Sh. Aktyorlik mahorati. Darslik. Fan va ta'lim poligraf nashriyoti – T.: 2022.
5. Muhamedova G, Usnatov R. Aktyorlik mahorati. Navro'z nashriyoti – T.: 2020.
6. Djon Benedikt. Aktyorning o'z ustida ishlashi (K.S.Stanislavskiy) - 2-qism. Routledge. 2008.
7. Lenard Petit. For the Actor (Aktyor texnikasi) - Taylor & Francis , 2009.
8. Usnatov R. Aktyorlik sheberligi. – Navro'z nashriyoti. T.: 2020.
9. Yorbekov E. Aktyorlik mahorati. – Navro'z nashriyoti-T.:2019.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.infocom.uz
3. www.uzreport.com